



Journal of Natural Sciences

№3
(2021)

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ХАЙЪАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош мухаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош мухаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Кодиров Т- к.ф.д, профессор3. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор4. Султонов М-к.ф.д, доц5. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.6. Хакимов К –г.ф.н., доц.7. Азимова Д- б.ф.н.8. Мавлонов Х- б.ф.д., доц9. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.10. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)11. Мухаммедов О- г.ф.н., доц12. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)13. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц14. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Sciences-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

AYDARKO'L SOHILI O'SIMLIKLAR QOPLAMINI ASRASH

Xo'rozov Nuriddin-magistr, JDPI Biologiya yo'nalishi

Annotatsiya: Aydarko'l sohilida o'sib rivojlanadigan ayrim o'simliklarni tarqalishi, o'simlik qoplamidagi o'rni, biologiyasi va ekologiyasini o'rganish

Kalit so'zlar: Aydarko'l, o'simlik, cho'l, biologik, hudud

Аннотация: изучение распространения, роли в растительном покрове, биологии и экологии некоторых растений, произрастающих на побережье Айдаркула

Ключевые слова: Айдаркуль, растительность, степь, биология, территория.

Annotation: the study of some plant propagation, the role, biology and ecology in plant cover, growing on the idyllic coast

Key words: idyllic, plant, desert, biological, territory

Respublikamiz o'simliklar olamiga boy mamlakat. Cho'l o'simliklarbdan qishloq xo'jaligida foydalanish va ularning o'zgaruvchan dinamikasini o'rganish holatini bilish doim dolzarb muammo bo'lib kelgan. Hozirgi kunda yo'nalish Xalqaro miqyosda ham ekologik barqarorlikni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan muammodir. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining biologik resurslaridan foydalanish yanada ratsionallashadi va qirg'oqbo'yi hududlarida infratuzilmalar rivojlantiriladi. Vazirlar Mahkamasi 22 aprel kuni bu haqdagi qarorni tasdiqladi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi — Jizzax va Navoiy viloyatlari hududidagi oqmas ko'llar bo'lib, Qizilqum cho'li sharqi, Chordara suv omboridan janubi-g'arbda joylashgan Aydarko'l, Tuzkon va Sharqiy Arnasoy ko'llarini o'z ichiga oladi. Hujjat bilan hududni rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilandi:

-jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tabiatni muhofaza qilish va biologik resurslardan foydalanish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash;

-ko'llarning biologik xilma-xilligini saqlash, shuningdek suv havzalarida baliqlarning yangi turlarini parvarishlash va ularni baliq sanoatiga kiritish;

-to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek baliqchilik klasterlarini yaratish hisobidan baliq yetishtirish, qayta ishlash, qadoqlash, saqlash va eksport qilishni rivojlantirishni tezlashtirish;

-ko'llar tizimini baliq urug'chiligi materiallarini yetishtirish bo'yicha hududdagi asosiy markazlardan biriga aylantirish;

-havaskorlik va sport baliq ovlash turizmi, turizm infratuzilmalarini rivojlantirish, sayyohlik xizmatlari hajmini oshirish.

Cho'l o'simliklari o'zi o'sayotgan hudud muhitiga moslashar ekan, bu moslanishlar ozmi ko'pmi o'simlikda o'ziga xos morfologik va yoki hatto genetik o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Aydarko'l sohilida o'sib rivojlanadigan ayrim o'simliklarni tarqalishi, o'simlik qoplamidagi o'rni, biologiyasi va ekologiyasini o'rganish, ilmiy jihatdan asoslash tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilaydi. Qizilqum cho'li o'simliklari qoplamini, o'simlik guruhlari, cho'l o'simliklarini bioekologiyasini, tuproq va suvliklarini o'rganilish, tadqiqotning maqsadiga ko'ra quyidagi vazifalarni belgiladik; mavjud va yig'ilgan ma'lumotlarni har tomonlama o'rganib, Qizilqumni janubiy qismida tarqalgan o'simlik turlarini tahlil qilib, ulardan ayrimlarini biologiyasi va ekologiyasini o'rganish.

Aydarko'l 2000-2010 yillar davomida deyarli 40 yil mobaynida paydo bo'lgan Aydarko'l va uning atrofida mavjud Forish va Nurota tumanlari maydonida joylashgan tabiiy o'tloqlarda geobotanik geobotanik izlanishlar to'liq olib borilmagan. Aydarko'l paydo bo'lgandan buyon, shu vaqtgacha ko'l sohilida mustaqil ajratib olinib, tuman hajmida aniq va rejali geobotanik ishlar olib borilmagan. Aydarko'l suvi keyingi yillarda sezilarli darajada kechinganligi tufayli o'simliklar qoplamida juda katta o'zgarishlar kuzatilgan. O'rganiladigan hududda barcha tadqiqot ishlarimiz an'anaviy geobotnik uslubda, xaritalash ishlari aerokosmosuratlardan foydalanib olib boriladi. Saksovulzorlar qumlarining har xil shakllarida: barخانlar, jo'yaksimom, katak-katak va tekis joylarida turli xil jamoalar tashkil qilib, viloyatning sharqiy, shimoliy, g'arbiy tumanlarida hukimlik qilgan. Bu hududlarda hozirgi kunda kamayib ketmoqda. Kamayish sabablarini isbotlash uchun saksovul tarqalgan tuproq tarkiblari tekshirib, o'rganish muhimdir. O'zbekistonning sharoitida Aydarko'l sohili hududida tarqalgan saksovul, juzg'un o'simliklarini tuproq tarkiblarida organik birikmalar, anorganik birikmalar, mikro-makroelementlar, ildiz chuqurligiga qarab qum va yuqoridagi birikmalar uchrash miqdorlari aniqlandi.

Aydarko'l sohilida tarqalgan saksovul, juzg'un o'simliklarining tuproq tarkibi tekshirilib, biokimyoviy tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, tuproq qatlamlarida chuqurliklariga qarab, farqlar aniqlandi. Aydarko'l sohili bo'yi o'simliklarni hozirgi vaqtdagi ro'yxati tuzib chiqildi. Soni kamayib ketayotgan o'simliklar aniqlanib, ko'paytirish choralari bo'yicha alohida yerlar ajratildi. Aydarko'l sohili o'simliklar qoplamining inqirozga uchrashi darajasini pasaytirish, o'tloq tiplarining unumdorligini oshirish uchun chorva mollarini boqishda ulardan almashlab foydalanish tasviya qilindi.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Махмудов М.М. Биолого-экологические основы введения в культуру *Salsola orientalis* S.G.Gmel в Юго-Западном Кызылкуме. //Растительные ресурсы. т.6, вып.1, 1972 а, с. 81-87

2.Махмудов М.М. Интродукция дикорастущих кормовых растений с целью улучшения пастбищ пустыни Юго-Западного Кызылкума. //Шестой симпозиум по новым кормовым растениям. Тезисы научных сообщений. Саранск, 1973, с. 87-89

3.Махмудов М.М. Кейреук как кормовое растение и опыт введения его в культуру в условиях Бухарской области. – Тр.ВНИИК, т.20.Самарканд, 1974, с. 191-204.

4.Шамсутдинов З.Ш., Ширинская В.Н. Влияние засоленности почвы на рост черного саксаула в условиях культуры. // Труды ВНИИК, т. XIII, Самарканд, 1963, с.117-123

5.Шамсутдинов З.Ш. Некоторые итоги исследований в области улучшения пастбищ и полевого кормодобывания в каракулеводстве и дальнейшие задачи. //Тр. ВНИИК каракулеводства, 1964, т.14, С. 305-332.